

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI



**60410200 - Buxgalteriya hisobi ta'lim yo'nalishi bo'yicha ikkinchi oliy ta'limga
kirish sinovlari**

**DASTURI
VA
BAHOLASH MEZONI**

SAMARQAND – 2026

Tuzuvchilar: S.N.Tashnazarov - SamISI «Buxgalteriya hisobi» kafedrası mudiri, i.f.d., professor;
A.U.Shirinov - SamISI «Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobi va audit» kafedrası mudiri, dotsent;
I.Ayubov - SamISI «Iqtisodiyot nazariyasi» kafedrası mudiri, dotsent;
Taqrizchilar: Yuldashev Sh.Q.– SamDU «Tarmoqlar iqtisodiyoti» kafedrası dotsenti,
Ulashev X.A. – SamISI «Iqtisodiyot nazariyasi» kafedrası dotsenti

Dastur Oliy ta'limning «Buxgalteriya hisobi» ta'lim yo'nalishida o'tilgan fanlar, xususan, «Iqtisodiyot nazariyasi», «Biznesda buxgalter», «Buxgalteriya hisobiga kirish» fanlar majmuasini o'zida aks ettirgan.

Mazkur dastur 60410200 - Buxgalteriya hisobi ta'lim yo'nalishi bo'yicha ikkinchi oliy ta'limga kirish sinovlarini topshiruvchilarga mo'ljallangan.

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti «Buxgalteriya hisobi» kafedrası majlisida muhokama qilingan hamda tavsiya etilgan (2026 yil 15- iyun 11- sonli majlis bayoni).

Mazkur dastur Samarqand iqtisodiyot va servis instituti O'quv-uslubiy Kengashida muhokama qilingan va foydalanishga tavsiya etilgan (2026 yil 22 iyun 11- sonli bayoni).

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi 4947-son farmoni bilan tasdiqlangan «2017 - 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi»ning 4 yo'nalishi ijtimoiy sohani, chunonchi ta'lim tizimini yanada rivojlantirishga qaratilgan. Harakatlar strategiyasi ijrosi yuzasidan respublikamiz Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909 son qarori bilan «2017 - 2021 yillarda oliy ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari Dasturi» tasdiqlandi. 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida» gi, 2021 yil 1 apreldagi PF-5047-son «Ilm-fan sohasidagi davlat siyosati va innovasion rivojlantirishdagi davlat boshqaruvini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmonlari qabul qilindi. Mamlakatimizni jadal rivojlantirishga qaratilgan mazkur davlat dasturlarida belgilangan ustuvor vazifalarni bajarishda zamonaviy talablarga javob bera oladigan mutaxassislarni tayyorlash o'ta muhimdir.

Bugungi kunda buxgalteriya hisobi va audit sohasida mutaxassislar tayyorlashda xalqaro tajribalarni o'rganish, soha mutaxassislari ASSA xalqaro darajadagi sertifikatlarini olishini ta'minlash borasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevralda PQ-4611-son «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida», 2021 yil 25 iyundagi PQ-5161-son «Nodavlat ta'lim tashkilotlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va ta'lim jarayonida yoshlar uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 4 avgustdagi №PQ-5210-son «Auditorlarni sertifikatlashtirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarorlarida oliy ta'lim muassasalari oldiga qator vazifalar yuklandi.

Chunonchi, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, auditning xalqaro standartlarini chuqur biladigan, bir vaqtning o'zida ASSA xalqaro tashkilotlarining sertifikatiga imtihon topshira oladigan, korxonalar moliyaviy hisobi va hisobotining amaldagi tizimlariga xolis baho bera oladigan, ushbu manbalar asosida xo'jalik faoliyati samaradorligini chuqur tahlil qila oladigan, uning natijalari yuzasidan ta'sirli boshqaruv qarorlarini qabul qilishga asos bo'la oladigan tavsiyalarni bera olish qobiliyatiga ega bo'lgan buxgalter va auditorlarga talab kuchayib bormoqda. Buxgalteriya hisobi sohasi va auditorlik xizmatini rivojlantirish zarurati mamlakatimizda maxsus «Buxgalteriya hisobi» ta'lim

yoʻnalishi boʻyicha yetuk kadrlarni tayyorlashga boʻlgan talablarni yanada oshirmoqda.

Mazkur dastur bakalavrlarga oʻqitiladigan “Iqtisodiyot nazariyasi”, “Iqtisodiy taʼlimotlar tarixi” fanlari asosida ishlab chiqilgan. Uning asosiy maqsadi «Buxgalteriya hisobi» taʼlim yoʻnalishi boʻyicha oʻqishga kiruvchilarning nomlari yuqorida koʻrsatilgan fanlar boʻyicha olgan nazariy bilimlari hamda amaliy koʻnikmalariga baho berish, ularni kelgusida buxgalteriya hisobi va audit sohasida yetuk mutaxassis, amaliyot xodimi boʻla olish qobiliyatini aniqlash uchun oʻtkaziladigan test sinovlarida talabgorlar javoblarini baholash mezonlarini belgilashdan iborat.

Dasturning maqsad va vazifalari

Taʼlim yoʻnalishi boʻyicha oʻqishga kiruvchilar uchun moʻljallangan sinov dasturining asosiy maqsadi va vazifasi buxgalteriya hisobi va audit sohasini rivojlanishi va faoliyat yuritishining nazariy, amaliy jihatlarini bilan bogʻliq tizimlarga taalluqli mavzular va savollarni bayon qilishdan iborat. Shuningdek, dastur savollarga berilgan javoblarning baholash mezonlarini ham belgilab beradi.

Fanlar boʻyicha ikkinchi oliy taʼlimga oʻqishga kiruvchi abituriyentlarning bilimiga, tayyorgarligiga va koʻnikmalariga qoʻyiladigan talablar

Fanlar doirasida tuzilgan sinov dasturida buxgalteriya hisobi va audit sohasining mohiyati, funksiyalari, bozor iqtisodiyoti sharoitidagi roli va oʻrni, ularning barqarorligini taʼminlash masalalari kabi savollar nazariy hamda amaliy jihatdan koʻrib chiqiladi, shundan kelib chiqqan holda 60410200 – Buxgalteriya hisobi taʼlim yoʻnalishi boʻyicha abituriyent:

- Kirish fanlarini oʻrganish davrida har bir mavzu boʻyicha tayanch iboralariga ham javob berib, tegishli masalani yecha olishi;
- Kirish fanlarni oʻzlashtirish natijasida buxgalteriya hisobi, auditga kirish bilan bogʻliq fanlardagi nazariy hamda amaliy bilimlarga ega boʻlishi;
- Mutaxassislikka oid ilmiy va ilmiy-texnik axborot bilan mustaqil ishlash, tizimli mustaqil tahlil qilish, xulosa chiqarish boʻyicha bilimga ega boʻlishi lozim.

Kirish fanlardan sinov mavzularini boshqa umumkasbiy fanlar bilan aloqasi

Kirish fanlarni oʻrganish davomida abituriyent fanlarni boshqa umumkasbiy fanlar bilan uzviy bogʻliqligini tushungan holda buxgalteriya hisobi, audit va boshqa munosabatlarining rolini va oʻrnini koʻrsatib bera oladigan darajada bilishlari lozim.

Kirish fanlarni o'rganish ikkinchi oliy ta'limga sinov topshirib kirish uchun tayyorgarlik ko'rishda asos bo'lib hisoblanadi. Shu bois, kirish fanlardan tuzilgan sinov savollariga javob berishda quyidagi fanlar bilan, ya'ni, "Iqtisodiyot nazariyasi", "Iqtisodiy ta'limotlar tarixi", "Makroiqtisodiyot" "Mikroiqtisodiyot", "Statistika", "Iqtisodiy tahlil" va boshqa fanlar bilan uzviy bog'liqligini e'tirof etish muhimdir.

"Iqtisodiyot nazariyasi" fani bo'yicha

Iqtisodiyot nazariyasi" fanining predmeti va bilish usullari

Iqtisodiyot tushunchasi va uning qamrov jihatidan turlari. Iqtisodiy faoliyatning mazmuni. Takror ishlab chiqarish fazalari: ishlab chiqarish, taqsimot, ayirboshlash, iste'mol. Iqtisodiyotga oid bilimlarning shakllanishi va rivojlanishi. Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti to'g'risida turlicha yondashuvlar. Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti. Iqtisodiy hodisa va jarayonlar. Iqtisodiyot nazariyasi fanining vazifalari. Iqtisodiyot nazariyasining boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi. Iqtisodiy qonunlar va kategoriyalar. Iqtisodiy qonunlarning turkumlanishi.

Ishlab chiqarish jarayoni va uning natijalari

Ishlab chiqarish omillari va ularning turkumlanishiga turlicha yondashuvlar. Ishlab chiqarish omillarining o'zaro bog'liqligi va bir-birining o'rnini bosishi.

Ishlab chiqarish jarayonining mazmuni va uning iqtisodiy asoslari. Ishlab chiqarishning tarkibiy tuzilishi. Ishlab chiqarishning umumiy va pirovard natijalari. Yalpi ijtimoiy mahsulot. Takroriy hisob. Oraliq mahsulot, pirovard mahsulot, qo'shilgan mahsulot, sof mahsulot. Zaruriy va qo'shimcha mahsulot. Ishlab chiqarish imkoniyatlari tushunchasi. To'la bandlik. Ishlab chiqarish imkoniyatlari chegarasi. Ishlab chiqarish samaradorligi. Vaqtni tejash qonuni. Mehnat unumdorligi va unga ta'sir qiluvchi omillar. Samaradorlikni belgilovchi ko'rsatkichlar tizimi.

Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar va mulkchilik munosabatlari

Ijtimoiy-iqtisodiyot taraqqiyot bosqichlarini bilishga turli xil yondashuvlar: tarixiy-formatsion, madaniylashish (sivilizatsiya) darajasi, texnika va texnologik darajasi, iqtisodiy tizimlar o'zgarishi jihatidan yondashuv. Iqtisodiy tizim tushunchasi. Iqtisodiy tizim modellari: an'anaviy iqtisodiyot, ma'muriy-buyruqbozlik iqtisodiyoti, bozor iqtisodiyoti. Bozor iqtisodiyotining bosqichlari: erkin raqobatga asoslangan va hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti. Mulkchilik munosabatlarining iqtisodiy mazmuni: egalik qilish, foydalanish va tasarruf qilish. Mulk ob'ekti va sub'ekti. Mulkchilikning iqtisodiy va huquqiy jihatlar.

Tovar-pul munosabatlari rivojlanishi bozor iqtisodiyoti shakllanishi va amal qilishining asosidir

Ijtimoiy xo‘jalik shakllari. Natural va tovar ishlab chiqarishning belgilari va farqlari. Tovar ishlab chiqarishning vujudga kelishi va rivojlanishi sabablari.

Tovar va uning xususiyatlari. Tovarining nafliligi va ayirboshlanish qobiliyati (qiymati). Tovar qiymatining miqdori. Qiymatning mehnat nazariyasi. Qiymat qonuni. Tovar qiymati va narxining o‘zaro farqlanishi shart-sharoitlari. Pulning kelib chiqishi va mazmuni. Pulning ratsionalistik va evolyutsion konsepsiyalari. Qiymat shakllari. Pul to‘g‘risidagi metallistik, nominalistik va miqdoriy nazariyalar. Pulning asosiy vazifalari: qiymat o‘lchovi, muomala vositasi, jamg‘arish vositasi, to‘lov vositasi.

Bozor iqtisodiyotining mazmuni va amal qilishi

Bozor iqtisodiyotining mazmuni va uning rivojlanishi. Bozor iqtisodiyotining sub’ektlari: uy xo‘jaliklari, tadbirkorlik sektori, davlat sektori va bank. Bozor iqtisodiyotining asosiy belgilari. Bozor tizimining o‘z-o‘zini tartibga soluvchi mexanizmi. Klassik va hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti, ularning umumiy tomonlari va farqlari. Zamonaviy bozor xo‘jaligi modellari. Bozor iqtisodiyoti sharoitida doimiy muammolarni hal qilish va resurslardan samarali foydalanish yo‘llari. Bozor iqtisodiyotining afzalliklari. Resurslarni taqsimlashning samaradorligi. “Bozor” va “bozor iqtisodiyoti” tushunchalarining o‘zaro farqlanishi. Bozorning mazmuni va asosiy belgilari. Bozor mexanizmi. Bozorning ob’ektlari va sub’ektlari. Bozorning vazifalari. Bozorning turkumlanishi. Resurslar, mahsulotlar va daromadlarning doiraviy aylanish diagrammasi.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish davri va uning O‘zbekistondagi xususiyatlari

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrining mazmuni. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish – barcha mamlakatlarga xos umumiy jarayon. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish yo‘llari. Bozor iqtisodiyotiga o‘tishning revolyutsion va evolyutsion shakllari. O‘tish davri iqtisodiyotining asosiy belgilari. Bozor iqtisodiyotiga o‘tishning milliy modellari. Bozor iqtisodiyotiga o‘tishning o‘zbek modeli, uning tamoyillari va xususiyatlari. Iqtisodiy islohotlarning mazmuni. O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish konsepsiyasi va strategiyasi. Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlari. Iqtisodiy islohotlarning bosqichlari va ularning vazifalari. O‘zbekistonda islohotlarni chuqurlashtirish va iqtisodiyotni erkinlashtirishning asosiy yo‘nalishlari.

Talab va taklif nazariyasi. Bozor muvozanati

Talab tushunchasi. Individual talab va bozor talabi. Talab qonuni. Giffen samarasi. Talab egri chizig‘i. Talab miqdoriga ta’sir qiluvchi omillar: iste’molchi didi, bozordagi iste’molchilar soni, ularning pul daromadi, o‘rnini bosuvchi tovarlar narxi, kelajakda narx va daromadlarning o‘zgarishi ehtimoli. Oliy va past toifali tovarlar. Engel qonuni. Engel egri chizig‘i.

Taklif tushunchasi. Taklif qonuni. Taklif egri chizig'i. Taklif miqdoriga ta'sir ko'rsatuvchi omillar: resurslar narxi, ishlab chiqarish texnologiyasi, soliqlar va subsidiyalar, boshqa tovarlar narxi, narx o'zgarishining kutilishi, ishlab chiqaruvchilar soni. Iqtisodiy resurslarga talab va taklifning xususiyatlari.

Raqobat va monopoliya

Raqobatning mohiyati va ob'ektiv asoslari. Raqobat mazmuniga turli tomondan yondashuv. Raqobatning vazifalari. Raqobatning turlari: tarmoq ichidagi va tarmoqlararo raqobat. Raqobat shakllari: sof raqobat, monopolistik raqobat, oligopoliya va sof monopoliya. Monopoliyaning mohiyati va uning vujudga kelishi sabablari. Ishlab chiqarish va kapitalning to'planishi va markazlashuvi. Monopoliyalarning turlari: sof monopoliya, oligopoliya, monopsoniya. Tabiiy monopoliyalar. Legal va sun'iy monopoliyalar. Lerner koeffitsienti. O'zbekistonda raqobat muhitining kuchaytirish borasidagi chora-tadbirlar. Monopoliyaga qarshi qonunchilikning shakllanishi.

Narxning mohiyati va shakllanish xususiyatlari

Narxning mazmuni va uning ob'ektiv asoslari. Narx to'g'risidagi turli nazariyalar. Tovardagi ikki xil xususiyatlarning narxlardagi ifodasi. Narxning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar. Bozor iqtisodiyoti sharoitida narxning vazifalari. Narx turlari: ulgurji va chakana narxlar. Narx diapazoni. Narx pariteti. Narx tashkil topishining bozor mexanizmi. Mukammal raqobat sharoitida narxning shakllanish xususiyatlari. Sotuvchi va haridor narxlari. Monopoliya sharoitida narxning shakllanishi. Ommaviy taklif bo'yicha narx o'zgarishi. Monopsoniya sharoitida narxning shakllanishi. Ommaviy talab bo'yicha narxning o'zgarishi. Oligopoliya sharoitida narxning shakllanishi. "Ergashish" va "inkor etish" holatlari. Narx bo'yicha yetakchilik. Narx siyosati va uning O'zbekistonda amalga oshirilish xususiyatlari. Narxlarni erkinlashtirish yo'llari va bosqichlari.

Tadbirkorlik faoliyati. Tadbirkorlik kapitali va uning aylanishi

Tadbirkorlik faoliyatining mazmuni. Tadbirkorlik faoliyati nazariyasining rivojlanish bosqichlari. Tadbirkorlik faoliyatining mohiyati va rivojlanish shart-sharoitlari.

Tadbirkorlik faoliyatining shakllari: davlat, jamoa, xususiy, aralash va boshqa hosila shakllari. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yanada erkinlashtirilishi va rag'batlantirilishi. Tadbirkorlik kapitalining mohiyati. Tadbirkorlik kapitali va uning harakatidagi ikki tomonlama xususiyatning namoyon bo'lishi. Tadbirkorlik kapitalining funksional shakllari: pul, unumli kapital va tovar. Kapitalning harakat bosqichlari. Tadbirkorlik kapitali turli shakllarining doiraviy aylanishi.

Korxona (firma) harajatlari va foydasi

Ishlab chiqarish harajatlarini tadqiq etishdagi yondashuvlar. Ijtimoiy ishlab chiqarish harajatlari. Korxona ishlab chiqarish harajatlari. Ishlab chiqarish harajatlarining mazmuni, tarkibi va turlari. Bevosita ishlab chiqarish harajatlari va muomala harajatlari. Ichki va tashqi harajatlar. Me'yordagi foyda. Doimiy va o'zgaruvchi harajatlar. Doimiy, o'zgaruvchi va umumiy (yalpi) harajatlarning grafikdagi tasviri. O'rtacha va umumiy harajatlar. O'rtacha harajatlarning egri chiziqlari. So'nggi qo'shilgan harajatlar tushunchasi. Harajatlarni minimallashtirish qoidasi: $MP_L / P_L = MP_A / P_A = MP_{har\ qanday\ omil} / P_{har\ qanday\ omil}$.

Ish haqi va mehnat munosabatlari

Yaratilgan mahsulot va daromadlarning taqsimlanish tamoyillari. "Ishlab chiqarishning uch omili", qo'shilgan omil unumdorligi va boshqa nazariyalar. Mazkur nazariyalarning kamchiliklari. Yaratilgan mahsulotni taqsimlashning asosiy yo'nalishlari.

Ish haqi to'g'risida turlicha nazariyalar. Ish haqining iqtisodiy mazmuni. Nominal va real ish haqi. Real ish haqining darajasi va o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar. Ish haqining tabaqalanishi. Ish haqini tashkil qilish shakllari va tizimlari. Tarif tizimi. Minimal ish haqi.

Agrar munosabatlar va agrobiznes

Agrar munosabatlar va ularning bozor tizimidagi xususiyatlari. Yerning resurs sifatidagi o'ziga xos xususiyatlari. Yerning tabiiy va iqtisodiy unumdorligi. Qishloq xo'jaligida takror ishlab chiqarishning o'ziga xos xususiyatlari. Yer mulkchilik va xo'jalik yuritish ob'ekti. Yerga egalik va yerdan foydalanish huquqi.

Yer rentasi nazariyasiga bo'lgan turli xil yondashuvlar va ularning tarixiy shakllari. Yer rentasining mazmuni va turlari: differensial renta, absolyut renta, monopol renta, undirma sanoat va qurilish uchastkalaridan olinadigan renta. Ijara haqi. Yerning narxi va uni belgilovchi omillar.

Milliy iqtisodiyot va uning makroiqtisodiy o'lchamlari.

Yalpi milliy mahsulot va uning harakat shakllari

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining e'lon qilinishi va milliy iqtisodiyotning shakllanishi. Milliy iqtisodiyotning mazmuni va uning tuzilishi. Makroiqtisodiyot. Makroiqtisodiy tahlil va uning vazifalari. Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar. Ijtimoiy takror ishlab chiqarish. Milliy mahsulotning iqtisodiy mazmuni va uning harakat shakllari. Yalpi milliy mahsulot va yalpi ichki mahsulot. Nominal va real yalpi ichki mahsulot.

Yalpi talab va yalpi taklif

Yalpi talab tushunchasi va uning tarkibi. Yalpi talab egri chizig'i. Yalpi talab miqdoriga ta'sir etuvchi omillar: iste'mol sarflaridagi o'zgarishlar, investitsion sarflar, davlat sarflari, sof eksportdagi o'zgarishlar. Yalpi taklif tushunchasi va uning tarkibi. Yalpi taklif egri chizig'i. Yalpi taklif egri chizig'idagi yotiq, oraliq

va tik kesmalar. Yalpi taklif miqdoriga ta'sir qiluvchi omillar: resurslar narxining o'zgarishi, samaradorlikning o'zgarishi, huquqiy me'yorlarning o'zgarishi.

Yalpi talab va yalpi taklif o'rtasidagi muvozanat va uning o'zgarishi. AD-AS modeli. Yalpi talab va yalpi taklif egri chiziqlarining kesishishi. Xrapovik samarasi. Milliy bozorning to'yinganlik darajasi. Taqchilikning iqtisodiy tabiati va uni bartaraf qilish yo'llari.

Iste'mol, jamg'arma va investitsiyalar

Iste'molning mazmuni va uning turlari. Iste'mol fondi va iste'mol sarflari. Jamg'arma va uning maqsadi. Iste'mol va jamg'arma o'rtasidagi nisbatning o'zgarishi. Iste'mol va jamg'arma darajasini belgilovchi omillar. Iste'mol va jamg'arma funksiyasi. Iste'mol va jamg'arma hajmiga daromaddan tashqari ta'sir ko'rsatuvchi omillar. Iste'mol va jamg'armaga o'rtacha va keyingi qo'shilgan moyillik va ularni aniqlash.

Iqtisodiy taraqqiyot. Iqtisodiy o'sish va milliy boylik

Iqtisodiy o'sishning mazmuni, mezonlari va ko'rsatkichlari. Iqtisodiy o'sish sur'ati. «70 miqdori qoidasi». Iqtisodiy o'sishning ekstensiv va intensiv turlari. Iqtisodiy o'sishning alohida tomonlarini tavsiflovchi ko'rsatkichlar. Iqtisodiy o'sishning omillari. Yalpi talab va yalpi taklifning iqtisodiy o'sishga ta'siri. Iqtisodiy o'sishni belgilovchi xususiy ko'rsatkichlar. Keyingi qo'shilgan ishlab chiqarish omillari unumdorligi ko'rsatkichlari. Real mahsulot o'sishini aniqlab beruvchi omillar. Iqtisodiy o'sishning keynscha va neokeynscha modellari.

Milliy iqtisodiyotning nisbatlari va muvozanati

Iqtisodiy muvozanat tushunchasi. Umumiqtisodiy va xususiy muvozanat. Turg'un va muttasil rivojlanib boruvchi muvozanatlik. Iqtisodiy muvozanat darajasini aniqlash usullari. Yalpi sarflar va ishlab chiqarish hajmini taqqoslash usuli. Resession va inflyatsion farqlar. Jamg'arma va investitsiyalarni taqqoslash usuli. Multiplikator samarasi. Akselerator samarasi. "Tejamkorlik paradoksi".

Iqtisodiyotning siklligi va makroiqtisodiy beqarorlik

Iqtisodiy rivojlanishdagi nomutanosibliklar va ularning namoyon bo'lish shakllari. Iqtisodiyotning siklli rivojlanishi. Iqtisodiy sikl fazalari. Siklik tebranishlar.

Iqtisodiy sikl nazariyalari. Eksternal va internal nazariyalar. Sof monetar nazariya. Yetarlicha iste'mol qilmaslik nazariyasi. Jamg'arish nazariyasi. Psixologik nazariya. Iqtisodiy sikl turlari.

Iqtisodiy inqirozning mazmuni, sabablari va turlari. Pul-kredit sohasidagi inqiroz, valyuta inqirozi, birja inqirozi, ekologik inqiroz, tarmoqlar inqirozi, tarkibiy inqiroz, agrar inqiroz. Davriy, oraliq, nomuntazam inqirozlar. Ortiqcha ishlab chiqarish va taqchil ishlab chiqarish inqirozlari.

Yalpi ishchi kuchi, uning bandligi va ishsizlik

Yalpi ishchi kuchining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni. Ishchi kuchini takror hosil qilish. Yalpi ishchi kuchining miqdor va sifat jihatdan aniqlanishi. FTTni ishchi kuchining sifat jihatdan takomillashuviga ta'siri. Nufus qonuni. Aholining tabiiy o'sishi. Ishchi kuchi migratsiyasi va uning shakllari.

Ishchi kuchi bozori. Ishchi kuchiga talab va taklif hamda uni aniqlovchi omillar. Ishchi kuchining qiymati. Ishchi kuchi bozorining ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari. Fillips egri chizig'i. Ishchi kuchining ayrim sohalardan bo'shashi va uni qayta taqsimlashning bozor mexanizmi.

Moliya tizimi va moliyaviy siyosat

Moliyaning mazmuni va ahamiyati. Moliyaviy munosabatlarning ob'ektlari va sub'ektlari. Moliyaning vazifalari. Moliya tizimi va uning bo'g'inlari. Davlat byudjeti va uning moliyaviy resurslarni shakllantirishdagi ahamiyati. O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining tuzilishi.

Davlat byudjetining daromadlari va harajatlari tarkibi hamda ularning egri chizig'i. Byudjet taqchilligi va davlat qarzlar, ularning iqtisodiyotga ta'siri. Davlat ichki qarzi. Davlat krediti. Davlat tashqi qarzi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida soliqlar va uning vazifalari. Soliq solish tamoyillari. Soliq imtiyozlari. Soliqlarning turkumlanishi. Laffer egri chizig'i. Soliq yuki va uning darajasini aniqlash. Soliq yukining taqsimlanishi. Moliyaviy siyosat. Fiskal (soliq-byudjet) siyosat.

Pul-kredit tizimi. Banklar va ularning bozor iqtisodiyotidagi roli

Pul muomalasi. Pul tizimi va uning tarkibiy qismlari. Muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdorini aniqlash va unga ta'sir etuvchi omillar. Pul muomalasi qonunlari. Pulning aylanish tezligi. Pul miqdorini aniqlashga turlicha yondashuvlar. $MV=PQ$ tenglamasining amal qilishi. Pul agregatlari. Pul bozorida talab va taklif: $M=L(r)P$. Pul taklifi va uning multiplikatori.

Inflyatsiya va uning kelib chiqish sabablari. Inflyatsiya darajasi va sur'ati. Talab va taklif inflyatsiyasi. Inflyatsiya turlari: o'rmalab boruvchi, jadal va giperinflyatsiya. Inflyatsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari, Davlatning inflyatsiyaga qarshi siyosati.

Bozor iqtisodiyotini tartibga solishda davlatning iqtisodiy roli

Iqtisodiyotni tartibga solishning mohiyati va zarurligi. Iqtisodiyotni tartibga solishning klassik, monetaristik, keynscha nazariyalari.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning maqsadi. Davlatning iqtisodiy o'rni va vazifalari: bozor munosabatlari qatnashchilarini huquqiy himoyalash, raqobatchilik muhitini vujudga keltirish; resurslar, mahsulotlar va daromadlarni qayta taqsimlash; iqtisodiyotning va pul muomalasining barqarorligini ta'minlash; tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish. Fan-texnika

taraqqiyoti, tarkibiy, ijtimoiy va mintaqaviy siyosatni amalga oshirishda davlatning o'rnini.

Aholi daromadlari va davlatning ijtimoiy siyosati

Aholi daromadlari, ularning turlari va shakllanish manbalari. Nominal va real daromad. Daromadlarning tabaqalanish sabablari va omillari. Turmush darajasi va sifati. Turmush darajasi va qashshoqlikning ko'rsatkichlari. Oila byudjeti: daromadlar va harajatlar tarkibi. Farovonlikning eng quyi chegarasi. Turmush tarzi. Yashash minimumi. Iste'molchi savatchasi.

Daromadlar tengsizligi va uning darajasini aniqlash. Lorens egri chizig'i. Ditsel va Jini ko'effitsiyentlari. Kuznes gipotezasi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida daromadlar tengsizligini keltirib chiqaruvchi umumiy omillar.

Jahon xo'jaligi va uning evolyutsiyasi

Jahon xo'jaligining tashkil topishi, bosqichlari va asosiy belgilari. Jahon xo'jaligi sub'ektlari. Jahon mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari. Ishlab chiqarishning baynalmilallashuvi. Xalqaro mehnat taqsimoti. Iqtisodiy o'zaro bog'liqlikning o'sishi va bevosita xalqaro ishlab chiqarishning shakllanishi. Iqtisodiyotning baynalminallashuvida FTT va transmilliy kapitalning o'rnini.

Globallashuv jarayonining mohiyati va asosiy yo'nalishlari. Jahon xo'jaligi globallashuvi jarayonlarining ziddiyatli tomonlari. Turli mamlakatlardagi iqtisodiy rivojlanishning bir tekisda bormasligi. Boy va qashshoq mamlakatlar o'rtasidagi farqning kuchayishi. Ekologik halokat tahdidlarining kuchayib borishi.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya va O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib borishi

Xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlari to'g'risidagi turlicha nazariyalar va ularning asosiy yo'nalishlari. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mazmuni. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning asosiy shakllari. Xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonini taqozo qiluvchi omillar. Jahondagi asosiy integratsion guruhlarining amal qilish xususiyatlari. Ochiq iqtisodiyot va uning o'ziga xos belgilari.

Jahon bozori. Xalqaro valyuta va kredit munosabatlari

Xalqaro savdo to'g'risidagi turli xil nazariyalar. Mutlaq ustunlik va qiyosiy ustunlik nazariyalari. Xeksher-Olin-Samuelson modeli. Ishlab chiqarish omillari nisbati nazariyasi. Ishchi kuchi malakasi modeli. Muqobil harajatlar modeli. Tovarning hayotiy sikli nazariyasi.

Xalqaro savdoning mazmuni. Eksport va import, ular o'rtasidagi nisbatning o'zgarishi. Taqqoslama eksport ixtisoslashuvi ko'effitsiyenti. Eksport kvotasi. Eksport va import multiplikatori. Eksport va import hajmi o'zgarishining yalpi milliy ishlab chiqarish hajmiga ta'siri. Xalqaro savdoning xususiyatlari.

“Iqtisodiy ta’limotlar tarixi” fani bo‘yicha:

“Iqtisodiy ta’limotlar tarixi” fanining predmeti va vazifalar. Qadimgi dunyodagi iqtisodiy fikrlar

Iqtisodiy fikr, g‘oya, qarash, ta’limotlarning paydo bulishi va rivojlanishining tarixiy jarayoni. Ilmiy davrlash prinsiplari (tamoyillari), boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar (falsafa, iqtisodiyot nazariyasi, xalq xo‘jaligi tarixi, ekonomiks) bilan chambarchas bog‘liqligi. Zamonaviy iqtisodiy ta’limotlarning asosiy maqsadi, zamonaviy iqtisodiy nazariya bo‘limlari, terminalogiya va tasniflash, iqtisodiy ta’limotlar tarixiga yondashuvimiz, absolyut va nisbiy yondashuvlar, ortodoksal va noortodoksal iqtisodchilar, noortodoksal iqtisodchilarning roli, noortodoksalikni aniqlash, qanday qilib har hil fikrli iqtisodchilar iqtisodiy ta’limotlar va kasbga ta’sir etadi, noortodoksal iqtisodchilarning muammolari, turli hil fikrlarni namoyish etish muammosi, metodologik muammolar.

Temuriylar davrigacha va temuriylar davridagi iqtisodiy g‘oyalar

Marg‘inoniyning «Hidoya» asari, undagi iqtisodiy fikrlar, iqtisodiy qonunchilik, zakot, chorva mollari, qo‘y-qo‘zi, qoramollardan olinadigan zakot miqdori, Forobiy asarlarida “ehtiyoj”, mehnat, mehnat taqsimoti, inson omili masalalarining yoritilishi. Beruniyning asarlarida kishilik extiyojlarining paydo bo‘lishi va uni qondirish asoslari, mehnat va hunarga munosabatlari. Ibn Sino asarlaridagi iqtisodiy qarashlar. Fozil davlat to‘g‘risidagi g‘oya. Insonlarning ma’naviyati va iqtisodiyot o‘rtasidagi munosabat. Savobli ish. Nizomulmulkning “Siyosatnoma” asaridagi iqtisodiy fikrlar. Xazina (budget), uni to‘lash, asrash hisob-kitob masalalari. Yusuf Xos Xojibning “Qutadg‘u bilig” asari, unda raiyatning hukmdorga talablari: mulk daxlsizligi, pulning qadr-qiymati, savdo yo‘llarining bexatarligi to‘g‘risidagi fikrlar. Merkantilizm va fiziokratizm g‘oyalari. Yusuf Xos Xojib va Rabguziy g‘oyalarining hozirgi davrdagi ahamiyati.

XIV asr oxiridagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvol. Amir Temurning iqtisodiy siyosati. “Temur tuzuklari”, undagi iqtisodiy g‘oyalar. Rivojlanish omillari: tinchlik-osoyishtalik; me’yoridagi soliqlar; davlat roli.

Ulug‘bekning iqtisodiy g‘oyalari va iqtisodiy siyosat. Moliya-pul isloxotining ahamiyati. Oltin va kumush tangalar o‘rniga mis pullarining zarb qilinishi. «Fulusiya pullari». Alisher Navoiyning «Maxbub ul-qulub» va boshqa asarlaridagi iqtisodiy g‘oyalar. Dehqon, hunarmand mehnatining ulug‘lanishi. Savdo, savdogar va tovlamachilarga munosabat. Olib-sotarlarning ijobiy va salbiy xizmatlari. Iqtisodiyot va davlat, xukmdorning roli.

Bobur va uning vorislari olib borgan ijtimoiy-iqtisodiy isloxotlarning mohiyati. Boburning “Boburnoma”, “Mubayyin” va boshqa asarlaridagi iqtisodiy g‘oyalar. Xumoyun va Akbarshox davridagi ijtimoiy-iqtisodiy fikrlar va siyosat, yangi yil xisobi, yagona uzunlik va og‘irlik o‘lchovlarining kiritilishi.

Temur va temuriylar davridagi iqtisodiy siyosatning xozirgi davr uchun ahamiyati.

Merkantilizm iqtisodiy ta’limotining mohiyati va ahamiyati

Merkantilizm tushunchasi, uning mazmuni. Merkantilizm g'oyasi vujudga kelishining iqtisodiy va ijtimoiy shart-sharoitlari. Har bir shaxs o'zi uchun iqtisodchidir. Qudrat va boylik. Savdo balansi. Boylikning asosi - muomala sohasi.

Ilk merkantilizm monetar tizimi. Tomas Mann (Angliya), Kolbertizm, Monkreten (Fransiya). David Hyumaning iqtisodiy qarashlari. Merkantilizm va proteksionizm siyosatining ayrim mamlakatlardagi ko'rinishi: Italiya merkantilizmi, Angliya-proteksionizmi, Fransiya-kolbertizmi. Merkantilizmning tarixiy taqdiri.

Angliya va Fransiyada klassik (mumtoz) maktabning shakllanishi

Klassik (mumtoz) iqtisodiy maktab vujudga kelishining tarixiy shart-sharoitlari va umumiy xarakteristikasi. Angliyadagi shart-sharoit. Boylikning asosi - ishlab chiqarish sohasi, mehnat va yer, tabiat. Uilyam Petti asarlari, uning merkantilizmga munosabati. Petti uslubi (metodi), xususiyatlari qiymatning talqini. Iste'mol va almashuv qiymatiga munosabat, muomaladagi pul miqdorini aniklash. Ish haqi, yer rentasi, yer bahosi va foiz (protsentning) tahlili.

Per Buagilberning qiymat talqini, iste'mol va ayirboshlash qiymati, pulga munosabat.

Fiziokratizm iqtisodiy ta'limotining vujudga kelishi (Fransiya). Uning umumiy xarakteristikasi. Fransua Kene asarida merkantilizmni tanqid qilinishi. Fiziokratlarning iqtisodiy dasturi. «Tabiiy tartib» konsepsiyasi. «Sof mahsulot» nazariyasi. «Unumli va unumsiz mehnat» talqini. Kapital, sinflar, oddiy takror ishlab chiqarish haqidagi g'oyalar. Kenening bosh asari «Iqtisodiy jadval»da ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonining tahlil etilishi va uning ahamiyati.

Fiziokratizm iqtisodiy ta'limotining ahamiyati va tarixiy taqdiri.

Klassik iqtisodiy maktabning to'la shakllanishi. Adam Smit va David Rikardo iqtisodiy ta'limotlari

Adam Smit dunyoqarashining kengligi. Smitning bozorlar va siyosat haqidagi xulosalari tahlili. Adam Smitning xalqaro savdo, qiymat nazariyasi, taqsimlash nazariyasi.

A.Smit asarlarida klassik maktab g'oyalarining yanada rivojlantirilishi. A.Smit manufaktura davrining iqtisodchisi sifatida. A.Smit «Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to'g'risidagi tadqiqot» nomli asari, feodalizmga munosabat. Merkantilizm tanqidi va fritrederlik (erkin savdo)ning asoslab berilishi.

A.Smit va hozirgi zamon. Bozor iqtisodiyoti to'g'risidagi ta'limotlar.

D.Rikardo-sanoatning fabrika davri mafkurachisi. Uning «Siyosiy iqtisod va soliq solishning boshlanishi» asaridagi asosiy iqtisodiy g'oyalari. Smitning xalqlar boyligi va Rikardoning tamoyillari o'rtasidagi bog'liqlik. Rikardo: uslub, siyosat, predmet. Rikardo modeli, davriy muammolar: don qonuni, tahliliy qurol va javobgarlik. Rikardoning er rentasi nazariyasi. Kamayib boruvchi daromad. Mahsulot hosil qilishda renta hissasi. Narx hosil qilishda renta hissasi. Renta tamoyilining umumiy tahlili. Rikardoning qiymat nazariyasi. Rikardoning qiymatning mehnat nazariyasi. Tovarlar ishlab chiqarishda raqobatlashuv.

Mehnatga haq to'lash bilan bog'liq qiyinchilik. Mehnatga haq to'lashda rikardo yondashuvi. Rikardoning taqsimot nazariyasi. Daromadlarning vaqt oralig'ida taqsimlanishi. Qiyosiy ustunlik. Kapitalistik iqtisodiyotda barqarorlik va o'sish. Merkantelistlarning yalpi talab to'g'risidagi qarashlari. Smitning yalpi talab to'g'risidagi qarashlari. Henri Thornton muhokama qolipi va rikardoning monetar nazariyasi.

Klassik iqtisodiy maktabga muqobil g'oyalarning mohiyati

Muqobil iqtisodiy g'oyalar paydo bulishining tarixiy shart-sharoitlari va xarakteristikasi. Karl Marks va uning klassik iqtisodiyot haqidagi tanqidiy fiklari. Marks uslubi, sinf va tovarlar. Marksning qiymatning mehnat nazariyasi. Ortiqcha qiymat va eksplutatsiya. Marksning kapitalizm taxlili. Ishsizlik armiyasiga qarama qarshilik. Foydaning tushish darajasi. Biznes inqirozing kelib chiqishi. Davriy takrorlanadigan o'zgarishlar, nomutanosib inqiroz.

Bozor iqtisodiyotiga muxolif - sotsialistik yo'nalish mohiyati va uning tarixiy tadbiri

XIX asrning birinchi yarmidagi xayoliy sosializmning o'ziga xos xususiyatlari, A.Sen-Simon, Sh.Fure va R.Ouyen iqtisodiy qarashlari, Sosialist-rikardochilarning (T.Godskin, J.Grey, J.Brey) iqtisodiy qarashlari, Marksizm vujudga kelishining tarixiy shart-sharoitlari, K.Marksning iqtisodiy ta'limotim, Markscha iqtisodiy ta'limotning tarixiy taqdiri

Germaniyadagi tarixiy maktab g'oyalarining o'ziga xos xususiyatlari

XIX asrning o'rtalarida ya'ni Germaniya yerlarini birlashtirib, yagona davlatga aylantirilish davrida klassik iqtisodiy maktabga muqobil yana bir yo'nalish «nemes tarixiy maktablari» yo'nalishi vujudga kelishi, Germaniya tarixiy maktablarining o'ziga xos xususiyatlari, F.Listning iqtisodiy qarashlari, tarixiy maktab (V.Rosher, K.Knis va B.Gildebrand), Yangi tarixiy maktab va «ijtimoiy yo'nalish»

Marjinalizm ta'limoti va neoklassik iqtisodiy maktablar

Marjinalizm. Iqtisodiy ta'limotlarda neoklassik yo'nalishning shakllanishi. Marjinalizmning umumiy ta'rif. Rivojlanish bosqichlari.

Jevons, Menger va ularning me'yoriy tahlil asoslari. Me'yoriy tahlilning dastlabki targ'ibotchilari. Qiymatning klassik nazariyasi kamchiliklari. Foydalilik o'zi nima? Nafililik tushunchasini solishtirish. Nafililik funksiyasi. Nafililik, talab va ayirboshlash. Ishlab chiqarish omillarining qiymati. Jevons va Menger evolyutsiyasi. Qiymatning klassik va shakllanayotgan neoklassik nazariyalari. Avstriyaning ikkinchi avlodi. Fredrix von Vizer. Iogan fon Bem-Baverk. Qaysi yoldan borish mumkin? Iqtisodning o'zgarib borayotgan metodi va predmeti. Jevons, Menger va Valrasning keying yozuvchilarga ta'siri. Marjinal taxlilning kengayishi: keyingi marjinalizm. Marjinal unumdorlik nazariyasi. Unumdorlikning pasayib borish qonuni. Yangi va eski. Maxsulotning tugallanishi. Viksel tayor

mahsulot haqida. Me'yoriy unumdorlik nazariyasining ahloqiy tomonlari. Me'yoriy unumdorlik bandlik nazariyasi sifatida. Me'yoriy unumdorlik nazariyasining tanqidi. Foyda va foiz. Kapital va foiz nazariyasi. Foiz muammosi. Bem Baverkning foiz nazariyasi. Fisher foiz haqida.

Institutsionalizm yo'nalishi mohiyati va ahamiyati

Institutsionalizmning asosiy xususiyatlari, evolyutsiyasi. Iqtisodiy kategoriyalarning inkor etilishi. T.Veblen g'oyalari. «Bekorchilar sinflari nazariyasi» asaridagi iqtisodiy g'oyalar. J.R.Kommons qarashlari. U.K.Mitchell g'oyalari. Kon'yunktur-statistik institutsionalizm oqimi. Iqtisodiyotda bashorat (prognoz) masalalari siklik davriy o'zgarishlar nazariyalarining paydo bo'lishi. Ijtimoiy-institutsional yo'nalish. J.K.Gelbreytning iqtisodiy qarashlari. Nomukammal bozor ta'limotlari. Chamberlen monopolistik raqobat to'g'risida. J.Robinsonning nomukammal raqobat nazariyasi. Samaradorlik va adolat dilemmasi. Monetarizm va neoliberalizm evolyutsiyasi. Fridmanning monetar maktabi. Xayek va Mizesning sotsialistik iqtisodga munosabati. V.Rebkening ordoliberalizmi

Metodologik munozara. Eski tarixiy maktab. Yangi tarixiy maktab. Angliyadagi tarixiy metod. Torstein Veblen. Neoklassik nazariyaga Veblenning tanqidiy qarashlari. Kapitalizmni Veblen tahlili. Dixotomiya (bo'linish). Bekorchilar sinfi. Barqaror va uzoqni ko'ruvchi kapitalizm. Veblenning hissi. Vasley Klar Mitchel. Jon R.Kommons. Kommons merosi. Kommons iqtisodiy fikrlari. Jon A.Hobson. Radikalistlar. Zamonaviy radikalizmning yigirmabirinchi asr namoyondalari. Zamonaviy radikalizmi Iqtisodiyoti. Zamonaviy institutsionalistlar. Kvazi Institutsionalistlar. Neoinstitutsionalistlar. Kvazi-Institutsionalistlar. Jozef Shumpeter. Jon Kennet Gelbreyt.

Jon Meynard Keyns ta'limoti, va neokeynschilik

Keyns makroiqtisodiyoti. Umumiy nazariyada konseptual tabiiylik. Keynsning multiplikator modelining shakllanishi:1940-1960. Keynschilik siyosati. Yangi keynschilik va muvofiqlashtirishda muammolar. Yana iqtisodiy o'sish va taklif haqida. Zamonaviy makroiqtisodiyotning istiqbollari. Keyns nazariyasi va makroiqtisodiyot. Post-keynschilik iqtisodiyoti. Britaniya post-keynschiligi. Amerika post-keynschiligi. Bozor iqtisodchilarning post-keynschilarga qarata javobi.

Pul, investitsiya, likvidlik, kapitalining eng yuqori samaradorligi, foiz stavkasi, multiplikator samarasi. Stagnastika nazariyasi, dirijizm. Akselerator tushunchasi. Imperativ va indikativ rejalashtirish. Iqtisodiy o'sish nazariyalari. Postkeynschilik.

Nomukammal raqobat bozori nazariyalari

XX asr boshlarida erkin (mukammal) raqobatga asoslanga iqtisodiyot tobora monopollashganligi, iqtisodiy liberalizm prinsiplari (erkin savdo-fritredolik, davlatning iqtisodga aralashmasligi va b.), monopollashuvning yorqin oqibati, nomukammal bozorning xususiyatlari, E.Chamberlinning monopolistik raqobat nazariyasi, J.Robinsonning iqtisodiy ta'limoti

Neoliberalizm g'oyalarining mohiyati va ahamiyati

Neoliberalizmning paydo bo'lishi va uning o'ziga xos xususiyati, belgilari. "Ordoliberalizm". Lyudvig fon Mize noliberalizmi. Fridrix Fon Xayek-neoliberalizm otasi. F.Xayekning ijtimoiy, iqtisodiy g'oyalari.

Valter Oyken "iqtisodiy tizim" tiplari to'g'risida. Iqtisodiy siyosatdagi ikki soha. "O'rtacha yo'l" siyosati.

Lyudvig Erdxardning iqtisodiy islohotlari. Islohotlarning muvoffaqiyatli chiqishining sababi.

Ijtimoiy bozor xo'jaligi.

Hozirgi zamon iqtisodiy ta'limotlari evolyusiyasi

Hozirgi davr iqtisodiy ta'limotlarining asosiy xususiyatlari, ijtimoiy-iqtisodiy yo'nalishining shakllanishi va rivojlanishi, Keynsning iqtisodiy qarashlari, keynschilik, yangi keynschilik, yangi klassik(neoklassik)yo'nalish.

O'zbekiston Respublikasidagi ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan bozor munosabatlariga o'tish davri konsepsiyasi

Ma'muriy - buyruqbozlik iqtisodiyoti oqibatlar va tub islohotlar zaruriyati, o'tish davri tavsifi va uning milliy xususiyatlari, iqtisodiy islohotlarning milliy modeli va yangi asr strategiyasi, bozor munosabatlariga o'tish bosqichlariga oid qarashlar tahlili

60410200 – "Buxgalteriya hisobi" ta'lim yo'nalishi bo'yicha ikkinchi oliy ta'limga kirish istagini bildirgan xar bir abituriyentga aloxida variantlar asosida test beriladi.

BAHOLASH MEZONI

1. "Buxgalteriya hisobi" ta'lim yo'nalishi bo'yicha ikkinchi oliy ta'limga kirish sinovlari O'zbekiston Respublikasi OTFIV tomonidan belgilangan umumtartib va Nizom qoidalariga amal qilingan holda o'tkaziladi.

2. "Buxgalteriya hisobi" ta'lim yo'nalishi bo'yicha ikkinchi oliy ta'limga kiruvchilari maxsus fanlar bo'yicha bajaradigan test topshiriqlari natijalari 100 ballik tizimda amalga oshiriladi.

3. "Buxgalteriya hisobi" ta'lim yo'nalishi bo'yicha maxsus fandan kirish imtixonini test usulida o'tkaziladi. Har bir variant 50 ta savoldan iborat. Variantdagi 50 ta savolning har biridan olish mumkin bo'lgan ball miqdori 2 balldan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Asosiy adabiyotlar

1. Muxammedov M.M. va boshqalar Iqtisodiyot nazariyasi.Darslik. – T.: Fan va texnologiya, 2022.
2. Z.T. Gaibnazarova, Sh.A. Isamuxametov. Iqtisodiyot nazariyasi. (Darslik) - T.: «Инновацион ривожланиш нашриёт- матбаа уйи», 2020. 526 b.
3. Sh. Shodmonov., M Raxmatov Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: Zamin nashr 2021. 856-b.
4. Mc Connell, Brue. Economics. 21th edition. Mcgraw-hill/Irwin, USA, 2018. – 450 p.
5. L.N.Xalikova. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. Darslik. Samarqand-2024, 380 bet.
6. L.N.Xalikova, O.D.Xamrakulova. “История экономических учений” Darslik. 2024 y. 430 bet
7. B.X.To'rayev, A.N.Nizamov Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. O'quv qo'llanma; Samarqand 2021 y. 270 bet.
8. Мухаммедов М.М., Умаров А.З. Экономическая история Узбекистана: Учебник/ -T.: «Инновацион ривожланиш нашриёт – матбаа уйи», 2020, 468с.
9. Inaba, Shin-Ichiro. The Struggle with Inequality. Tokyo: Springer Nature, 2021.

Qo'shimcha adabiyotlar:

10. Экономическая теория: Учебник для бакалавров/Под общ. ред. А.А.Кочеткова.5-изд. Перераб. и доп.- М.: издательско-торговая корпорация “Дашков и К”, 2014.-696 стр.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi “O'zbekiston–2030” strategiyasini 2023 yilda sifatli va o'z vaqtida amalga oshirish choratadbirlari to'g'risida” PQ300sonli Qarori. / Xalq so'zi, 2023 yil 12 sentyabr, №190
12. Бурганов Р.А., Экономическая теория.Учебник. – Москва.: “Инфра-М”, 2016. – 562 стр.
13. Kovalyov A.A. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash strategiyasi. Darslik - Sankt-Peterburg: Konovalova A.M. nashriyoti, 2019-188s.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11-sentyabrdagi “O'zbekiston–2030” strategiyasini 2023 yilda sifatli va o'z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-300-sonli Qarori. / Xalq so'zi, 2023 yil 12-sentyabr, №190
15. Amir Temur. “Temur tuzuklari”/memuar asar/ forschadan Alixon Sog'unliy va Habibullo Karamatov tarjimasi/ ”Buyuk Davlatchilik silsilasi” turkumi-T.: ”Ilm-ziyo zakovat” 2020. 144 b.
16. Мухаммедов М.М., Камилова Н.А. Экономическая теория. Учебник для бакалавров.Fan va texnologiya nashriyoti, 2023.-624
17. Muxammedov M.M. va boshqalar Iqtisodiyot nazariyasi.Darslik. – T.: Fan va texnologiya, 2022.

18. Шодмонов Ш.Ш., Мухаммедов М.М., Камилова Н.А.
Экономическая теория. Учебник. –Т.:Иктисод-Молия, 2021 г. 448 с

Internet saytlari

19. <http://arm.sies.uz> – SamISI elektron kutubxonasi
20. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi xukumat portali.
21. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari
milliy bazasi.
22. www.ziyonet.uz – ta’lim portali
23. www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika
agentligi sayti.